

AKTSIYADORLIK JAMIYATLARIDA KAPITAL TARKIBINI SHAKLLANTIRISH NAZIRIYASI VA UNING XUSUSIYATLARI

Mirsaid Norqulov

Termiz davlat universiteti

“Moliya va moliyaviy texnologiyalar”

kafedrasi o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14864629>

Hozirgi kunda jamiyat faoliyatini moliyaviy qo'llab-quvvatlash aksiyadorlik jamiyatlarining hozirgi va uzoq muddatli davrda muvaffaqiyatli ishlashini belgilaydigan eng muhim omillardan biri bo'lib hizmat qiladi. Aksiyadorlik jamiyatlarining strategik rivojlanish masalalari uning faoliyatini moliyalashtirish manbalari bilan uzviy jihardan bog'liqdir.

Strategik rejalashtirish jarayonida kapital tarkibi masalasi alohida o'rin tutadi, chunki qarz va o'z mablag'lari nisbati aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatining bir qator jihatlariga, xususan faoliyat samaradorligi, bozor qiymati, moliyaviy barqarorlik, manfaatlar to'qnashuvi ehtimoli va boshqalarga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Global pandemiya hamda iqtisodiy cheklovlardan mamlakat iqtisodiyotni bosqichma-bosqich tiklash sharoitida, bu ishbilarmonlik faolligining deyarli to'liq qisqarishini va mahalliy aksiyadorlik jamiyatlari tobora ko'proq mablag' jalb qilishga muhtoj bo'lganda, kapital tarkibini shakllantirish xususiyatlari va uning jamiyat faoliyatiga ta'siri masalalari tobora dolzarb ahamiyat kasb etmaqda.

Aksiyadorlik jamiyatlari kapital tarkibini shakllantirishning maqsadli tuzilishini quyidagi yo'nalishlarda amalga oshirilishi maqsadga muvofiq:

- bankrotlik xavfini, shu jumladan ichki yoki tashqi hamkorlar tomonidan qasddan kelib chiqadigan bankrotlik xavfini kamaytirish;
- uzoq muddatda jamiyat faoliyatining barqarorligini oshirish;
- aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatining tarmoq va institutsional xususiyatlari bilan bog'liq xavflarni minimallashtirish va xatarlarni boshqarish.

Shu o'rinda aksiyadorlik jamiyatlari kapitaliyati va uning iqtisodiy ahamiyatiga to'xtalib o'tish joizdir. Aksiyadorlik jamiyati kapitali-bu jamiyatga asosiy, investitsiya va moliyaviy faoliyatni amalga oshirishga imkon beradigan moliyaviy vositalardir.

Aksiyadorlik jamiyatining kapitali buxgalteriya balansining majburiyatida aks ettiriladi, u erda a'zolik asosida ikki shaklga bo'linadi: kapital va majburiyatlar.

Aksiyadorlik jamiyatlarning kapital tarkibini shakllantirishning shunday usullari va shakllarini joriy etish joizki, bu usul va shakllar hozirgi kunda shiddat bilan yuz berayotgan ichki va tashqi omillar hamda bozor talablariga juda tez moslashuvchan va iqtisodiy jihatdan samarali bo'lishi lozim. Xususan, aksiyadorlik jamiyatlari shakllanish tarixi shuni ko'rsatadiki, Italiyada 1345 yilda tashkil etilgan Avliyo Georgi Genuya banki dastlabki aksiyadorlik jamiyati sifatida talqin etilgan¹. Aksiyadorlik jamiyatlari bozor iqtisodiyoti, ya'ni jamiyatni boshqarishning klassik sharoitida tashkil etilib, unda ishlab chiqaruvchi va iste'molchilar o'rtasida tovar-pul munosabatlari, ayirboshlash, jamg'arish va investitsiya jarayoni talab va taklif asosida tartibga solinadi.

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlarga asoslangan holda, quyida aksiyadorlik jamiyatlari kapital tarkibini shakllantirishning iqtisodiy mohiyati va unga iqtisodchi olimlar tomonidan

¹ www.grandars.ru/college/ekonomika-firmy/istoriya-ao.html сайти маълумотлари

berilgan ta'riflarga e'tibor qaratib, unda asosan "kapital" va "kapital tarkibi"ning mohiyatan biri-biriga yaqinligi yuzasidan turli-tuman fikrlar ifoda etilgan. Xususan, xorijlik iqtisodchi olim, S. Myersning ta'kidlashicha «kapital tarkibi – aksiyadorlik jamiyati o'z investitsiyalarini moliyalashtirish uchun tanlagan jamiyatning qimmatli qog'ozlari va moliyaviy manbalarining nisbati sifatida aniqlanadi»² deya ta'rif bergan.

E.S Filonovanning fikricha «kapital tarkibi – bu jamiyatning o'z mablag'lari va qarz mablag'lari o'rtasidagi nisbat. Kapitalning maqbul tuzilishini tanlash moliyaviy menejment va jamiyat rahbariyati tomonidan hal qilinadigan eng muhim vazifalardan biridir»³. I. A. Blank esa quyidagi ta'rifini beradi: «kapital-uning aktivlarini shakllantirishga investitsiya qilingan pul, moddiy va nomoddiy shakllardagi mablag'larning umumiy qiymatidir»⁴

Yuqoridagi keltirib o'tilgan ta'riflarni inobatga olgan holda, "kapital" tushunchasining quyidagicha talqinini taklif qilish mumkin: «kapital-bu pul, moddiy va nomoddiy shakllarda mujassamlangan va foyda olish uchun aktsiyadorlik jamiyatlarining aktivlarini shakllantirishga investitsiya qilingan o'z-o'zidan o'sib boruvchi qiymatdir».



² Майерс С. «Принципы корпоративных финансов». // Экономические науки. - 2011. - № 84. - С. 123-126.

³ Filonova E.S. «Оптимизация структуры капитала компаний телекоммуникационной отрасли». НИР. Экономика (№ 3 (39), 2019). 72:4–13

⁴ Бланк И.А. Финансовый менеджмент. – Киев: Эльга: Ника– центр, 2008.– 527 с.